Key words: econometric models, economic-statistical methods, healthcare system indicators, forecasting.

Аннотация: В статье разработаны методы комплексной количественной оценки основных показателей системы здравоохранения на примере Сурхандарьинской области с использованием эконометрических методов и теории нечетких множеств. Кроме того, на основе построенных эконометрических моделей разработаны научные предложения и рекомендации, направленные на дальнейшее развитие ключевых показателей системы здравоохранения в регионах.

Ключевые слова: эконометрические модели, экономико-статистические методы, показатели системы здравоохранения, прогнозирование.

KIRISH

Surxondaryo viloyatida hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik asosiy maqsadlaridan biri – aholining salomatligi va hayot sifatini oshirishdan iborat. Bu esa viloyat aholisi salomatligini yaxshilash, kasallanish va o'lim darajasi ko'rsatkichlarini kamaytirish orqali hududning ijtimoiy-demografik holatini yaxshilashga, shuningdek, aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi ko'rsatkichini oshirishga yordam beradi. Shu sababli sog'liqni saqlash tizimining asosiy ko'rsatkichlarini iqtisodiy-statistik usullar yordamida tahlil qilish hamda ushbu ko'rsatkichlarni yanada barqarorlashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sog'liqni saqlash tizimini kompleks baholashda iqtisodiy-statistik va noaniq modellashtirish usullari integratsiyasi zamonaviy tadqiqotlar markazida turibdi. Zadeh tomonidan ilgari surilgan noaniq to'plamlar nazariyasi bu boradagi asosiy nazariy baza bo'lib xizmat qiladi. U o'zining "Fuzzy Sets" nomli ilmiy ishida an'anaviy matematik modellarning cheklavlarini yengib o'tuvchi yondashuvni taklif qilgan. Bu yondashuv keyinchalik sog'liqni saqlash, ijtimoiy sohalar va iqtisodiy baholash tizimlariga samarali qo'llanila boshlandi.

Hududiy sog'liqni saqlash tizimlarining rivojlanishini tahlil qilishda Sharipov tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy-statistik modellashtirish asoslari muhim o'rin egallaydi. Uning "Ekonometrika" asarida ekonometrik model tuzish, regressiya tahlili, determinatsiya koeffitsiyenti kabi tushunchalar chuqur tahlil qilingan bo'lib, aynan sog'liqni saqlash tizimidagi asosiy ko'rsatkichlarni baholashda qo'llanilishi mumkin.

Noaniq modellashtirishning iqtisodiy tahlildagi amaliy imkoniyatlari Guseynov va Guseynova asarlarida keng yoritilgan. Ular iqtisodiy modellashtirishda noaniq mantiq yondashuvi yordamida ehtimollik va subyektiv baholash asosida strategik qarorlar qabul qilish mexanizmini ishlab chiqqan.



Hududiy tahlil yondashuvlari bo'yicha Yo'ldoshev o'zining "Hududiy iqtisodiyot" asarida makro va mikro darajadagi ko'rsatkichlar asosida ijtimoiy-iqtisodiy holatni baholash usullarini taklif qiladi. Bu yondashuv sog'liqni saqlash tizimi resurslarini joylashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini baholashda foydalidir.

Nazarov sog'liqni saqlash iqtisodiyotini mustaqil tarmoq sifatida o'rganib, tibbiyot xizmatlarining moliyalashtirish mexanizmlari, inson kapitaliga ta'siri va samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashga e'tibor qaratgan.

Mazkur tadqiqotda foydalanilgan statistik ma'lumotlar Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy saytida e'lon qilingan ko'rsatkichlarga asoslanadi. Bu ma'lumotlar asosida prognozlash modellari tuzilib, noaniq tahlil yondashuvlari bilan boyitildi.

Bundan tashqari, Gujarati va Wooldridge tomonidan iqtisodiy model qurish, diagnostika va prognozlash masalalariga oid fundamental asarlar sog'liqni saqlash tizimidagi ko'rsatkichlar tahliliga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning ishlarida statistik xatoliklar, modelning aniqligi va ishonchligini baholash usullari batafsil yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining 2013–2024-yillardagi rasmiy statistik to'plamlaridan olindi. Tahlil qilish uchun ekonometrik modellash, noaniq to'plamlar nazariyasi, trend tahlili hamda GRETL dasturiy ta'minoti asosida regressiya modellari va nisbiy xatoliklar hisoblash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqot ishimizda Surxondaryo viloyatida sog'liqni saqlash tizimi holatini tavsiflash uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar tanlab olindi: Surxondaryo viloyati aholisi soni (ming kishi); viloyatdagi barcha ixtisoslikdagi shifokorlar soni (kishi); viloyatdagi o'rta tibbiyot xodimlari soni (kishi); viloyatdagi kecha-kunduz faoliyat yuritadigan stasionarlardagi shifoxona o'rinlari soni (dona); viloyatdagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni (birlik); viloyatdagi barcha kasalliklar bo'yicha aholining kasallanish ko'rsatkichi (ming kishi); viloyatdagi tug'ilish soni (kishi); viloyatdagi vafot etganlar soni (kishi); viloyatdagi OIV kasalliklari bilan kasallanish ko'rsatkichi (kishi); xavfli o'sma kasalliklari bilan kasallanish ko'rsatkichi (ming kishi); faol sil kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi (kishi). (1-jadval)

1-jadval. Surxondaryo viloyatida sog'liqni saqlash tizimidagi asosiy ko'rsatkichlari¹.

Ko'rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Viloyat aholi soni (ming kishi)	2260,6	2308,3	2358,3	2411,5	2462,3	2514,2	2569,9	2629,1	2680,8	2743,2	2806,5	2877,1
Aholining birlamchi kasalliklar bilan kasallanishi (100000 aholiga nisbatan)	40923	42781	45798	44765	45987	48072	44949	46300	43386	52055	41786	45676
Shifoxonalarda davolangan bemorlar soni (ming kishi)	376,5	398,7	400,8	405,7	398,9	409,4	404,5	717,2	805,6	443,9	419	419
Ma'lum vaqtda vafot etganlar soni (kishi)	9503	9702	9887	10380	11330	10698	10544	11931	12786	13851	13507	12621
Barcha tibbiyot ixtisoslikdagi shifokorlar soni (ming kishi)	3,8	2,7	3,5	3,9	3,9	4,2	4,1	4,2	4,3	5,0	5,0	5,0
O'rta tibbiyot xodimlari soni (ming kishi)	19	19,2	21,7	22,0	22,0	22,1	22,5	22,2	22,8	23,4	24,4	24,4

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari va anteka sorovlari natijasida muallif ishlanmasi



Kecha-kunduz ishlaydigan shifoxonalardagi o'rinlar soni (birlik)	7 550	4 685	7 482	7 882	8 358	8 773	8 490	8 732	8 791	9 731	9 907	9910
Tug'ilganlar soni (kishi)	56539	60717	64424	62638	64908	68259	72680	74658	80975	81548	87695	84054
Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni	406	377	390	384	268	299	263	278	292	390	448	242
Viloyatdagi Shifoxonalar soni	66	49	50	53	58	64	57	62	63	67	77	77
Viloyatdagi tibbiyot xodimlari soni (ming kishi)	22,8	21,9	25,2	25,9	25,9	26,3	26,6	26,2	27,1	28,4	29,4	29,4
Nafas olish a'zolari bilan bog'liq kasalliklari soni	153289	150435	167180	175097	177985	177965	180574	200657	225879	220578	227889	238754
Ko'z va uning qo'shimcha apparatlari kasalliklari soni	20743	25342	22765	24345	27865	28987	30765	35876	37650	37376	37422	37009
Ovqat hazm qilish a'zolari bilan bog'liq kasalliklari soni	101230	102678	116453	128774	153459	159876	196540	209287	210025	213425	216392	209867
Qon aylanish tizimi bilan bog'liq kasalliklari soni	73586	78124	75390	77540	77412	78654	85640	85765	87618	86543	84916	83542

Tadqiqotimiz davomida biz tomonimizdan Surxondaryo viloyatida barcha ixtisoslikda faoliyat yuritayotgan shifokorlar soni (kishi) va o'rta tibbiy xodimlar soni (kishi) ko'rsatkichlari uchun noaniq prognoz variantlarini hosil qilishimiz uchun taklif etilgan metodikani keltiramiz. Buning uchun quyidagi ko'rsatkich va belgilashlarni kiritishimiz lozim:

Y_1 - Surxondaryo viloyatida barcha ixtisoslikda faoliyat yuritayotgan shifokorlar soni (kishi);

Y_{1nx} - Surxondaryo viloyatida barcha ixtisoslikda faoliyat yuritayotgan shifokorlar sonining nisbiy xatoligi;

Y_2 - Surxondaryo viloyati aholisining birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlari soni (kishi);

Y_{2nx} - Surxondaryo viloyati aholisining birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlari sonining nisbiy xatoligi;

t - o'rganilayotgan davrlar (vaqt);

R^2 - determinatsiya koeffitsiyenti (modelning o'zgaruvchilari natija (bog'liq) o'zgaruvchini qay darajada tushuntirishini ko'rsatadi).

Tadqiqotimizning axborot-empirik bazasi Surxondaryo viloyatining 2013-2023-yillardagi, shuningdek, 2024-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy holatining asosiy ko'rsatkichlarini tavsiflovchi to'plamlar hisoblanadi.

Ushbu keltirilgan ma'lumotlar asosida 2013-2024-yillarda Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash tizimining holatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar uchun GRETL dasturiy ta'minotidan foydalangan holda trend modellari tuzildi.



2-jadval. Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yurituvchi tibbiyot xodimlari soni ko'rsatkichlarining GRETL dasturiy ta'minotida aniqlangan model natijalari.

Модель 1: МНК, использованы наблюдения 2013-2024 (T = 12)
Зависимая переменная: Y- Tibbiyot xodimlari

	Коэффициент	Ст. ошибка	t-статистика	p-значение	
const	22,1515	0,562866	39,35	<0,0001	***
t	0,651049	0,0764785	8,513	<0,0001	***
Среднее завис. перемен	26,38333		Ст. откл. завис. перем	2,504118	
Сумма кв. остатков	8,364009		Ст. ошибка модели	0,914550	
R-квадрат	0,878741		Исправ. R-квадрат	0,866616	
F (1, 10)	72,46842		P-значение (F)	6,81e-06	
Лог. правдоподобие	-14,86145		Крит. Акаике	33,72290	
Крит. Шварца	34,69271		Крит. Хеннана-Куинна	33,36384	
параметр rho	0,226131		Стат. Дарбина-Уотсона	1,490376	

2-jadval natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, model statistik jihatdan ishonchli va ahamiyatlidir. Determinatsiya koeffitsiyentining qiymati 0,88 ko'rsatkich bilan yuqori hamda F-statistika katta va qoldiqlar kichik ekanligi aniqlangan. Bu model orqali bog'liq o'zgaruvchining katta qismini tushuntirish va korrelyatsiyada muammo mavjud emasligi haqida farazni ilgari surishimiz mumkin.

Shu tartibda viloyatda aholining birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlari soni ko'rsatkichlari uchun ham ekonometrik tahlil natijalari amalga oshirildi.

GRETL dasturiy ta'minoti imkoniyatlaridan foydalanib, aniqlangan hisob natijalari asosida viloyatda faoliyat yurituvchi tibbiyot xodimlari soni () va aholining birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlari soni ko'rsatkichlari () uchun trend modellarini hosil qilindi:

$$Y_1 = 0,651049t + 22,1515 \quad (1)$$

$$Y_2 = -0,81278t^3 + 18,317855t^2 + 865,778817t + 41952,4021 \quad (2)$$

Tahlillarimizning keyingi bosqichida ko'rsatkichlarning nazariy qiymatlari aniqlandi. Bu qiymatlardan ko'rsatkichlarning mutlaq xatoliklarini aniqlash uchun foydalandik. Natijada (1) va (2) tenglamadan foydalanib, mos absolyut xatoliklar uchun ko'rsatkichlarning nisbiy xatoliklari hisoblandi (3-jadval) va ular uchun trend modellari hosil qilindi (4-jadval).

3-jadval. Surxondaryo viloyatida tibbiyot xodimlari va aholining birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlari ko'rsatkichining nazariy qiymatlari hamda uning absolyut va nisbiy xatoliklari².

Yillar	t (vaqt)	Haqiqiy ma'lumotlar (kishi)		Nazariy ma'lumotlar (kishi)		Absolyut xatolik (kishi)		Modul bo'yicha nisbiy xatolik (foizda)	
		Tibbiyot xodimlar	Birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlar	Tibbiyot xodimlari	Birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlar	Tibbiyot xodimlar	Birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlar	Tibbiyot xodimlar	Birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlar
2013	1	22,8	40923	22,80255	42835,69	0,002549	1912,686	0,011179	4,465169
2014	2	21,9	42781	23,4536	43703,17	1,553598	922,1716	6,624135	2,110079
2015	3	25,2	39798	24,10465	44537,46	1,095353	1260,543	4,544157	2,830298
2016	4	25,9	44765	24,7557	45338,54	1,144304	573,5432	4,622387	1,265023
2017	5	25,9	43987	25,40675	46106,43	0,493255	119,429	1,941433	0,259029
2018	6	26,3	48072	26,05779	46841,11	0,242206	1230,885	0,929495	2,627788
2019	7	26,6	44949	26,70884	47542,6	0,108843	2593,6	0,407517	5,455317
2020	8	26,2	46300	27,35989	48210,83	1,159892	1910,833	4,239388	3,963494
2021	9	27,1	43386	28,01094	48845,97	0,910941	5459,966	3,25209	11,17793
2022	10	28,4	52055	28,66199	49447,85	0,26199	2607,152	0,914068	5,272529

2 Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari va anteka sorovlari natijasida muallif hisob natijalari.



2023	11	29,4	41786	29,31304	50016,53	0,086961	8230,529	0,296663	16,45562
2024	12	30,9	45676	29,96409	50551,91	0,935912	4875,909	3,123446	9,64535

4-jadval. Surxondaryo viloyatida barcha ixtisoslikda faoliyat yuritayotgan shifokorlar sonining nisbiy xatoligi ko'rsatkichlarining GRETl dasturiy ta'minotida aniqlangan model natijalari.

Модель 3: МНК, использованы наблюдения 2013-2024 (T = 12) Зависимая переменная: Y1- Nisbiy xatolik					
	Коэффициент	Ст. ошибка	t-статистика	p-значение	
const	2,57545	0,512735	5,023	0,0005	***
T1	1,76903	0,725124	2,440	0,0349	**
Среднее завис. перемен	2,575496		Ст. откл. завис. перем	2,138905	
Сумма кв. Остатков	31,54770		Ст. ошибка модели	1,776167	
R-квадрат	0,373109		Центрированный R-квадрат	0,310420	
F (1, 10)	5,951737		P-значение (F)	0,034872	
Лог. правдоподобие	-22,82683		Крит. Акаике	49,65365	
Крит. Шварца	50,62347		Крит. Хеннана-Куинна	49,29459	
параметр rho	-0,116061		Стат. Дарбина-Уотсона	1,933005	

5-jadval hisob natijalari asosida Surxondaryo viloyatida barcha ixtisoslikda faoliyat yuritayotgan shifokorlar sonining nisbiy xatoliklari ko'rsatkichlarining trend modeli hosil qilindi:

$$Y_{1nx} = 1,76903 \sin\left(\frac{\pi t}{3} - \frac{\pi}{2}\right) + 2,57545 \quad (3)$$

$$Y_{2nx} = 3,54369 \cos\left(\frac{\pi t}{6}\right) + 5,46074 \quad (4)$$

Ko'rsatkichlarning trend modellari asosida tegishli davr uchun o'rganilayotgan ko'rsatkichning o'rtacha kutilayotgan qiymatlarini tavsiflovchi 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognozlari amalga oshirildi.

Xatoliklarning trend modellari yordamida ularning nazariy qiymatlari hisoblab chiqildi, bu esa o'rganilayotgan ko'rsatkichlar uchun optimistik va pessimistik prognozlarni aks ettiruvchi noaniq prognozni tuzish imkonini berdi.

(1), (2) va (3), (4) tenglamalardan foydalangan holda ko'rsatkichlar va ularning xatoliklarining 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlarini aniqlaymiz (5-jadval).

5-jadval. Surxondaryo viloyatida faoliyat yurituvchi tibbiyot xodimlari va aholining birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlari soni ko'rsatkichlari hamda uning xatoliklarining prognoz qiymatlari³.

Yillar	Ko'rsatkichning prognoz qiymatlari (kishi)		Ko'rsatkich xatoligining prognoz qiymatlari (%)	
	Tibbiyot xodimlari	Birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlari	Tibbiyot xodimlari	Birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlari
2025	30,61514	51054,0873	0,80642	8,5301
2026	31,26619	51522,9651	0,52844	7,232585
2027	31,91724	51958,5419	1,76903	5,46074
2028	32,56828	52360,8177	0,52844	3,688895
2029	33,21933	52729,7925	0,80642	2,39137
2030	33,87038	53065,4663	2,57545	1,91705

3 Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari va anteka sorovlari natijasida muallif hisob natijalari.



Hisob natijalari ko'rsatmoqdaki, Surxondaryo viloyatida tibbiyot xodimlari soni prognoz davrida (2025–2030-yillar oralig'ida) barqaror va ijobiy sur'atda o'smoqda. Har yili o'rtacha 2% atrofida o'sish kuzatilayotgan bo'lsa, birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlar soni esa har yili 500 atrofida oshmoqda, ammo o'sish sur'ati pasaymoqda. O'sish trendi bir tekis va lineer ko'rinishda.


Keyingi bosqichda ko'rsatkichning trend modellari va uning xatoliklaridan foydalanib, uning noaniq prognoz variantlarini hosil qilamiz.

Odatda, noaniqlik diapazonlari aniqlangan prognoz xatoliklaridan foydalanib hisoblanadi. Noaniqlik diapazoni prognoz xatoliklarining standart chetlanishi yordamida hisoblanadi. (6-jadval)


6-jadval. Surxondaryo viloyatida faoliyat yurituvchi tibbiyot xodimlari va aholining birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlari soni ko'rsatkichlarining noaniqlik diapazoni qiymatlari⁴.

Yil	Prognozlar qiymati		Noaniqlik diapazoni (quyi chegara)		Noaniqlik diapazoni (yuqori chegara)	
2025	30.615137	51054,0873	29.065137	46699,12	32.165137	55409,05
2026	31.266186	51522,9651	29.716186	47796,52	32.816186	55249,41
2027	31.917235	51958,5419	30.367235	49121,22	33.467235	54795,86
2028	32.568284	52360,8177	31.018284	50429,28	34.118284	54292,35
2029	33.219333	52729,7925	31.669333	51468,83	34.769333	53990,76
2030	33.870382	53065,4663	31.669333	52048,17	35.420382	54082,76

4-jadval hisob natijalarining grafik ko'rinishlari hosil qilindi (1-2-rasmlar).



1-rasm. Surxondaryo viloyati tibbiyot xodimlari soni ko'rsatkichlarining noaniq prognoz qiymati (ming kishi)⁵.



2-rasm. Surxondaryo viloyati aholisining birlamchi kasalliklar bilan kasallanish ko'rsatkichlarining noaniq prognoz qiymatlari (ming kishi)⁶.

4 Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif hisob natijalari.

5 Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif hisob natijalari.

6 Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif hisob natijalari.



Navbatdagi qadamlarda 1-jadvalda keltirilgan Surxondaryo viloyati misolida sog'liqni saqlash tizimining qolgan barcha ko'rsatkichlar uchun ham shunga o'xshash hisoblash ketma-ketliklari amalga oshirildi. Natijada quyidagi prognoz variantlari ishlab chiqildi:

Prognoz davrida Surxondaryo viloyati aholisining birlamchi kasalliklar bilan kasallanishlar soni 2013-2024-yillarga nisbatan biroz o'sish tendensiyasi mavjud, ammo 2029-2030-yillar oralig'ida pasayish kuzatilishi aniqlandi.

Viloyatda tug'ilishlar, sohada faoliyat yurituvchi tibbiyot xodimlari, nafas olish a'zolari kasalliklari bilan kasallanish soni ko'rsatkichlarida butun prognoz davrida (2025-2030-yillar) barqaror o'sish tendensiyasida bo'lishini ko'rsatmoqda.

Viloyatda vafot etganlar soni hamda ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni ko'rsatkichlarida prognoz davrida sust barqarorlik kuzatiladi.

Viloyatda kecha-kunduz ishlaydigan shifoxonalardagi o'rinlar soni 2025-2027-yillarda nisbatan biroz o'sishni ko'rsatmoqda, ammo 2030-yilda 2027-yil qiymatlariga nisbatan barqarorlik kuzatilmoqda.

Viloyatda ko'z va uning qo'shimcha kasalliklari bilan kasallanishlar hamda ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari bilan kasallanishlar soni ko'rsatkichlarida butun prognoz davrida deyarli o'zgarmaydi, ammo prognoz chegaralari kengayadi, bu kelajakda kutilayotgan prognozdan sezilarli farqlarni ko'rsatishi mumkin.

Surxondaryo viloyati aholisi soni butun prognoz davrida barqaror o'sib bormoqda, bu esa o'lim darajasining barqarorlashishi hamda tug'ilishlar sonining ortishi natijasi bo'lishi mumkin.

Tadqiqotimizning keying bosqichida noaniq to'plamlar nazariyasi asosida Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash tizimining holatini kompleks miqdoriy baholashni amalga oshiramiz. Bu jarayonni hisoblash standart noaniq uch darajali [0,1]-klassifikator yordamida amalga oshiriladi. Baholash 2013-2024-yillarda Surxondaryo viloyati bo'yicha Surxonstatning mintaqa sog'liqni saqlash holatini tavsiflovchi yillik ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Bunda, Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash tizimining holatini noaniq to'plamlar nazariyasi yordamida tahlil qilish uchun ko'rsatilgan ko'rsatkichlarni, masalan, ko'rsatkichlar qiymatining tegishli ko'rsatkichning eng katta qiymatiga nisbati sifatida me'yorlashtirdik (5-jadval).

5-jadval. Surxondaryo viloyatida sog'liqni saqlash tizimidagi asosiy ko'rsatkichlarining eng katta qiymatiga nisbati sifatida me'yorlashtirilgan qiymatlari natijasi⁷.

Ko'rsatkich nomi	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Viloyat aholi soni (ming kishi)	0,786	0,802	0,820	0,838	0,856	0,874	0,893	0,914	0,932	0,953	0,975	1,000
Aholining birlamchi kasalliklar bilan kasallanishi (100000 aholiga nisbatan)	0,786	0,822	0,880	0,860	0,883	0,923	0,863	0,889	0,833	1,000	0,803	0,877
Shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni (ming kishi)	0,467	0,495	0,498	0,504	0,495	0,508	0,502	0,890	1,000	0,551	0,520	0,520
Vafot etganlar soni (kishi)	0,686	0,700	0,714	0,749	0,818	0,772	0,761	0,861	0,923	1,000	0,975	0,911
Barcha ixtisoslikdagi shifokorlar soni (ming kishi)	0,760	0,540	0,700	0,780	0,780	0,840	0,820	0,840	0,860	1,000	1,000	1,000
O'rta tibbiyot xodimlari soni (ming kishi)	0,779	0,787	0,889	0,902	0,902	0,906	0,922	0,910	0,934	0,959	1,000	1,000
Kecha-kunduz ishlaydigan shifoxonalardagi o'rinlar soni (birlik)	0,762	0,473	0,755	0,795	0,843	0,885	0,857	0,881	0,887	0,981	0,999	1

7 Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif hisob natijalari.



Viloyatda tug'ilishlar soni (kishi)	0,645	0,692	0,735	0,714	0,740	0,778	0,829	0,851	0,923	0,930	1,000	0,958
Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni	0,906	0,842	0,871	0,857	0,598	0,667	0,587	0,621	0,652	0,871	1,000	0,540
Shifoxonalar soni	0,857	0,636	0,649	0,688	0,753	0,831	0,740	0,805	0,818	0,870	1,000	1,000
Tibbiyot xodimlari soni (ming kishi)	0,776	0,745	0,857	0,881	0,881	0,895	0,905	0,891	0,922	0,966	1,000	1,000
Nafas olish a'zolari kasalliklari soni	0,642	0,630	0,700	0,733	0,745	0,745	0,756	0,840	0,946	0,924	0,954	1,000
Ko'z va uning qo'shimcha kasalliklari soni	0,551	0,673	0,605	0,647	0,740	0,770	0,817	0,953	1,000	0,993	0,994	0,983
Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari soni	0,468	0,474	0,538	0,595	0,709	0,739	0,908	0,967	0,971	0,986	1,000	0,970
Qon aylanish tizimi kasalliklari soni	0,840	0,892	0,860	0,885	0,884	0,898	0,977	0,979	1,000	0,988	0,969	0,953

Biz tomonimizdan taklif qilingan Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash tizimi ko'rsatkichlari turli xil ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, Fishbern qoidasi bo'yicha vazn koeffitsiyentlarini kiritish talab etiladi. Bunda, vaqt davrlarini o'lchash teskari tartibda yani ko'rib chiqilayotgan holatda birinchi davr 2024-yil, oxirigisi esa 2013-yil ko'rinishida amalga oshiriladi:

$$k_i = \frac{2(n-i+1)}{(n+4)n} \quad (5)$$

bu yerda, $n=12$; $i=1,2,3,\dots,12$.

Yuqorida keltirganimiz Fishbern qoidasi asosida quyidagi 6-jadvalni hosil qilamiz.

6-jadval. Fishbern qoidasi bo'yicha vazn koeffitsiyentlari qiymati⁸.

	- vazn koeffitsiyentlari		- vazn koeffitsiyentlari
1	0,125	7	0,063
2	0,115	8	0,052
3	0,104	9	0,042
4	0,094	10	0,031
5	0,083	11	0,021
6	0,073	12	0,010

Yuqorida keltirilgan (5) formuladan foydalanib vazn koeffitsiyentlarini aniqlaymiz, bunda $i=1$ 2024-yil uchun x_i qiymatiga, $i=12$ 2013-yil uchun x_i qiymatiga mos keladi. Shu sababli, o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning x_{Fj} me'yorlashtirilgan qiymatlarining ahamiyatini hisobga olgan holda hisoblash quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$x_{Fj} = \sum_{i=1}^n k_i \cdot x_i \quad (6)$$

Mazkur formula (6) asosida x_{Fj} , $j=1,2,\dots,14,15$ ko'rsatkichlarning me'yorlangan qiymatlarini davrlarning ahamiyatiligini hisobga olgan holda hisoblaymiz va lingvistik daraja qiymatlarini ham keltirib o'tamiz.

x_i , kattaliklar $[0,1]$ kesma ko'rinishidagi universal to'plamga (tashuvchiga) ega bo'lgan noaniq o'zgaruvchilarning son qiymatlari hisoblanadi. Ularga $D_i = \{D_{i1}, D_{i2}, D_{i3}\}$, $i = 1,2,3$ - quyidagilardan iborat bo'lgan lingvistik o'zgaruvchilarni taqqoslaymiz:

8 Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif hisob natijalari.



D_{i1} - “ko’rsatkichning quyi darajasi” - $x_{Fj} \in [0, 0,33]$

D_{i2} - “ko’rsatkichning o’rta darajasi” - $x_{Fj} \in (0,33, 0,67]$

D_{i3} - “ko’rsatkichning yuqori darajasi” - $x_{Fj} \in (0,67, 1]$

Ushbu lingvistik o’zgaruvchilar chegara qiymatlari hamda me’yorlangan qiymatlar asosida Surxondaryo viloyatida sog’liqni saqlash tizimidagi asosiy ko’rsatkichlarining me’yorlangan qiymatlari va lingvistik darajasi natijalarini hosil qilindi (7-jadval).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Surxondaryo viloyati sog’liqni saqlash tizimi asosiy ko’rsatkichlarini iqtisodiy-statistik usullar yordamida tahlil qilish sohaga oid muammoli jihatlarni aniqlash va uning rivojlanishiga doir yuqori aniqlikdagi prognoz variantlarini ishlab chiqishda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi.

2013–2024-yillarda Surxondaryo viloyati sog’liqni saqlash tizimi asosiy ko’rsatkichlarining zaif va kuchli tomonlarini aniqlash maqsadida quyidagi iqtisodiy-statistik yondashuvlar asosida izlanishlar amalga oshirildi:

Surxondaryo viloyati sog’liqni saqlash tizimi asosiy ko’rsatkichlari hamda ularning nisbiy xatoliklari uchun ekonometrik modellar ishlab chiqildi;

Ushbu modellar asosida o’rta muddatli prognoz qiymatlari aniqlanib, noaniqlik diapazoni chegaralaridan foydalanilgan holda interval shakldagi prognoz variantlarini ishlab chiqish usuli taklif qilindi;

2013–2024-yillar ma’lumotlari asosida viloyat sog’liqni saqlash tizimi asosiy ko’rsatkichlari bo’yicha 2030-yillargacha mo’ljallangan o’rta muddatli prognoz variantlari shakllantirildi.

Shuningdek, uchburchakli noaniq sonlar kombinatsiyasi asosida sog’liqni saqlash tizimi ko’rsatkichlarini miqdoriy va sifat jihatidan baholashda noaniq to’plamlar nazariyasidan foydalanish taklif qilindi. Shu sababli, ko’rsatkichlar salbiy va ijobiy guruhlariga ajratilib o’rganildi. Tadqiqot doirasida har bir ko’rsatkichni sifat jihatdan baholash maqsadida “ko’rsatkich darajasi” nomli lingvistik o’zgaruvchi kiritildi. Bunda birinchi guruh – salbiy, ikkinchi guruh esa ijobiy holatga mos keladi.

Tahlil va hisob natijalaridan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, Surxondaryo viloyati sog’liqni saqlash tizimini rivojlantirishning uzoq muddatli istiqbollari ijobiy baholanishi mumkin. Shu bilan birga, profilaktika va sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish tadbirlarini kengaytirish, malakali tibbiy kadrlar sonini oshirish hamda sifatli xizmat ko’rsatishga ixtisoslashgan shifoxona o’rinlari va ambulatoriya-poliklinika muassasalari sonini ko’paytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF–60-sonli Farmoni .
2. Sharipov Q.F. Ekonometrika. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2022. – 432 b.
3. Guseynov A.A., Guseynova L.A. Primeneniye nechetskoy logiki v ekonomicheskoy modelirovani. – M.: Finansy i statistika, 2019. – 256 s.
4. Yo’ldoshev I.I. Hududiy iqtisodiyot. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 344 b.
5. Nazarov Sh.N. Sog’liqni saqlash iqtisodiyoti. – T.: Iqtisodiyot, 2021. – 312 b.
6. Zadeh L.A. Fuzzy Sets. – Information and Control, 1965. – Vol. 8, pp. 338–353.
7. Wooldridge J.M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. – 6th ed. – Boston: Cengage Learning, 2016. – 912 p.
8. Gujarati D.N. Basic Econometrics. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill, 2009. – 922 p.
9. www.surxonstat.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
